XALQ DEPUTATLARI XOVOS TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 26 - iyul VI-62-122-9-129-K/23 Xovos tuman hokimligi

Xovos tuman mahalliy byudjetining 2023-yil boshiga shakllangan qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi byudjet kodeksining 126-moddasiga hamda“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2023-yil 19-maydagi 1261-sonli “Muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o‘tkazuvchi saylov komissiyalari a’zolarining malakasini oshirishni tashkil etish to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq Xalq deputatlari Xovos tuman Kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2023-yil 19-maydagi 1261-sonli “Muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o‘tkazuvchi saylov komissiyalari a’zolarining malakasini oshirishni tashkil etish to‘g‘risida” gi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xovos tuman hokimining tuman mahalliy byudjetining shakllangan qo‘shimcha manbalari (erkin qoldiq) hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan taklifi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Xovos tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari Xalq deputatlar Xovos tuman Kengashining qarorlari asosida yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi PQ-3042-sonli qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmoyishlarida, Hukumat qarorlari va bayonlarida belgilangan tadbirlarni bajarish

maqsadida hamda tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tadbirlariga tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish 1-ilovaga muvofiq amalga oshirilsin.

5. Byudjetdan mablag‘ ajratilgan tashkilot rahbarlariga tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning maqsadli va samarali sarflash vazifasi hamda sarflangan mablag‘lar to‘g‘risidagi hisobotlarni Xalq deputatlar Xovos tuman Kengashga taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari I.Nurmatov zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishva tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi B.Xudoyberdiyevga yuklatilsin

Sessiya raisi **G‘.E.RAYIMNAZAROV**

Xalq deputatlari Xovos tuman Kengashining
2023-yil 26-iyuldagi
VI-62-122-9-129-K/23-son qaroriga
1-ilova

Xovos tuman 2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan mablag‘ ajratilishi to‘g‘risida

ming so'mda

T/r	Xovos tuman budjet tashkiloti nomi	O‘zgartirishga taklif
	Xovos tumani bo'yicha jami	**29 890,0**
	jumladan:	
1	*Seminar-trening ishtirokchilari uchun tushlik va kofe-breyklar tashkil qilish xarajatlari uchun*	**29 890,0**